

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

**DASTURIY MAHSULOTLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TEXNOLOGIK
PARKI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 10-yanvardagi 17-son **qaroriga** muvofiq, shuningdek, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini samarali tashkil etish, yuridik shaxslarni uning rezidentlari sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish, soliq va bojxona imtiyozlarini qo‘llash tartibini belgilash, “startup-loyihalarni” har tomonlama, shu jumladan, venchur moliyalashtirish asosida qo‘llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Oldingi tahrirga qarang.

2. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasiga (keyingi o‘rinlarda — Direksiya):

yuklangan vazifalarni amalga oshirish doirasida malakali mutaxassislarni, shu jumladan, chet ellik mutaxassislarni maslahatchi sifatida shartnoma asosida tender (tanlov) savdolari o‘tkazmasdan jalb qilishga, istisno tariqasida, ruxsat berilsin;

shartlar jadvalini mustaqil ravishda ishlab chiqish va tasdiqlash, Direksiya xodimlari mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish shartlarini bajariladigan ishlarning murakkablik darajasi, sifati va hajmiga nisbatan tabaqalashtirilgan tarzda belgilash huquqi berilsin.

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

3. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Tepamasjid ko‘chasi, 4-uy manzilida joylashgan O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tasarrufidagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktabning bino va inshootlarini davlat ulushini ko‘paytirish hisobiga baholovchi tashkilot tomonidan aniqlangan qiymat bo‘yicha Direksiyaning ustav fondiga berish haqidagi taklifiga rozilik berilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-iyundagi 478-f-son farmoyishiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tasarrufidagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktabga Toshkent shahri Yashnabod tumanida umumiy maydoni 6,5 ga bo‘lgan yer uchastkasi (sobiq 22-harbiy shaharcha hududining bir qismi — Maxtumquli ko‘chasi bilan kesishgungacha) ajratilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. Belgilansinki, ushbu qarorning **3-bandida** ko‘rsatilgan davlat mulkining bozor qiymatini aniqlash bo‘yicha xizmatlar to‘lovi Direksiya mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Direksiyaning buyurtmanomalari bo‘yicha Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (keyingi o‘rinlarda Texnopark deb ataladi) faoliyatini tashkil etishda ishtirok etuvchi yuqori malakali xorijiy mutaxassislariga O‘zbekiston Respublikasida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqiga tasdiqnomalar berilishini (uzaytirilishini) ta‘minlasin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Direksiya 2019-yil 1-avgustgacha bo‘lgan muddatda:

Texnopark binosini rekonstruksiya qilish va kapital ta‘mirlash ishlarining yakunlanishini;

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi **nizomga** muvofiq yuridik shaxslarni Texnopark rezidenti sifatida ro‘yxatdan

o'tkazish hamda istiqbolli "startap-loyihalar"ni ko'rib chiqish uchun qabul qilish va tanlash boshlanishini ta'minlasinlar.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 10-yanvardagi 17-son qarorining 6-bandidan **birinchi xatboshi** chiqarib tashlansin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh.M. Sadikov zimmasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Telekommunikatsiyalar, IT-texnologiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari kotibiyatiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2019-yil 15-iyul,
589-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyuldagi 589-son qaroriga
ILOVA

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

Oldingi tahrirga qarang.

1. Ushbu Nizom Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish, yuridik shaxslarni rezident sifatida ro'yxatdan o'tkazish va maqomdan mahrum etish, rezidentlar uchun soliq va bojxona imtiyozlarini, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bo'yicha xodimlar tomonidan soliq imtiyozlarining qo'llanilishini, shuningdek, istiqbolli startap-loyihalarni tanlab olish va moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

(1-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

2. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

biznes-reja — kompaniya, tovar, uni ishlab chiqarish, ko'rsatiladigan xizmatlar, mahsulot sotiladigan potensial bozorlar, marketing strategiyasi, operatsiyalarni amalga oshirishni tashkil etish va ularning samaradorligi ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan reja, kompaniyaning harakatlari, biznes-operatsiyalarni amalga oshirish dasturi;

startap-loyiha — foyda olish noaniq va moliyaviy tavakkalchilik yuqori bo'lgan sharoitlarda dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari sohasida yangi mahsulot yaratishni yoki xizmatni joriy etishni ko'zda tutuvchi loyiha;

Oldingi tahrirga qarang.

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (keyingi o'rinlarda — Texnopark) — O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida eksterritoriallik prinsipi asosida axborot texnologiyalari mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishning maksimal darajada qulay sharoitlarini yaratish uchun respublikaning butun hududida Texnopark rezidentlarini joylashtirgan holda ishlaydigan tashkilot;

(2-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari Texnologik parki direksiyasi (keyingi o'rinlarda Direksiya deb ataladi) — Texnopark faoliyatini operativ boshqaruvchi mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi yuridik shaxs;

Rezidentlarning yagona reyestri — ushbu Nizomga muvofiq Texnoparkda ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar ro'yxati mavjud bo'lgan ochiq va umumfoydalaniladigan axborot resursi;

Texnoparkning rezidenti — belgilangan tartibda Texnoparkda ro'yxatdan o'tkazilgan va Rezidentlarning yagona reyestriga kiritilgan yuridik shaxs;

ariza beruvchi — Texnopark rezidenti maqomini olishga talabgorlik qiluvchi yuridik shaxs;

startup-loyiha tashabbuskori — startup-loyihani amalga oshirish bo'yicha taklif taqdim etgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

mentor — startup-loyihani rivojlantirish va ilgari siljitish maqsadida uni o'z bilimlari va tajribasi bilan qo'llab-quvvatlaydigan maslahatchi;

Maslahat kengashi (keyingi o'rinlarda Kengash deb ataladi) — ushbu Nizomda belgilangan talablarga muvofiq inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturlariga qabul qilish uchun nomzodlarni tanlashni, shuningdek, mentorlarni saralashni ta'minlash maqsadida Direksiya huzurida tashkil etiladigan organ;

akseleratsiya dasturi — mentorlar va bozor ekspertlari tashkiliy va maslahat bilan qo'llab-quvvatlagan holda test sinovidan o'tkazish va biznes-modelini ishlab chiqish yo'li bilan startup-loyihalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy-amaliy dastur;

inkubatsiya dasturi — uning doirasida startup-loyiha g'oyasi shakllantiriladigan va ishlab chiqiladigan ta'limiy-amaliy dastur;

Oldingi tahrirga qarang.

vab-portal — Texnopark rezidenti maqomini olish uchun yuridik shaxslardan hujjatlar qabul qilish, Direksiya va uning rezidentlari o'rtasida o'zaro hamkorlik qilish, shu jumladan, ulardan hisobotlar, xulosalar, biznes-rejalar va boshqalarni qabul qilish uchun mo'ljallangan Direksiyaning Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy vab-saytidagi bo'limi. Vab-portalning ishlash tartibi Direksiya tomonidan belgilanadi;

Ekspert kengashi — Direksiya huzurida rezident maqomini olish uchun ariza bergan yuridik shaxslar va rezidentlarning biznes-rejalarini tahlil qilish maqsadida vazirliklar va idoralar, ilmiy muassasalar, oliy ta'lim muassasalari malakali mutaxassislari va boshqa mutaxassislardan tashkil etiladigan organ. Ekspert kengashining ish tartibi Direksiya tomonidan belgilanadi;

(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qaroriga asosan o'n to'rtinchi va o'n beshinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Istiqbolli startup-loyihalarni ko'rib chiqish va baholash hamda mentorlarni tanlash bo'yicha ekspert komissiyasi (keyingi o'rinlarda Ekspert komissiyasi deb ataladi) — akseleratsiya dasturidan muvaffaqiyatli o'tgan startup-loyihalarni keyinchalik moliyalashtirish uchun ko'rib chiqish va o'rganishni tashkil etish, shuningdek, mentorlarni tanlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzurida tashkil etiladigan organ.

3. Quyidagilar Texnoparkning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

axborot texnologiyalari sohasida raqobatbardoshli mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqilishini rivojlantirish va ishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ichki va tashqi bozorlarga kirib borishi, innovatsion ishlanmalarni rag'batlantirish;

Texnopark rezidentlariga faoliyatni amalga oshirish uchun zarur infratuzilma, shu jumladan, zamonaviy laboratoriyalarni berish, ularga moliyaviy, marketing, yuridik va boshqa konsalting xizmatlari, shuningdek, akseleratsiya dasturlari bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

startup-loyihalarni amalga oshirishda, shu jumladan, vechur moliyalashtirish asosida qo'llab-quvvatlash, axborot texnologiyalari sohasida boshlovchi va kichik korxonalariga innovatsion faoliyat natijalarida ko'maklashish;

shu jumladan, zamonaviy texnologiyalar va dasturiy mahsulotlar transferi hisobiga loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun mahalliy va xorijiy investorlarni jalb etishda rezidentlarga ko'maklashish;

yuqori texnologik mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarish zanjirining uzluksizligini ta'minlash uchun ilmiy, ilmiy-tadqiqot, o'quv va ishlab chiqarish tashkilotlari faoliyati o'zaro integratsiyasiga ko'maklashish;

axborot texnologiyalari sohasida yuqori malakali mutaxassislarning zamonaviy sinfini shakllantirish maqsadida aholi va yoshlar o'qitilishini tashkil etish;

axborot texnologiyalari sohasida yetakchi kompaniyalar va mutaxassislarni jalb etgan holda mahorat darslari, treninglar va malaka oshirish kurslari, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazish.

2-bob. Texnopark direksiyasi faoliyatini tashkil etish

4. Direksiya "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining **39-moddasida** belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan direktor boshchilik qiladi.

Direktorning vakolatlari Direksiya ustavida belgilanadi.

Direktor Direksiya yuklangan funksiyalar va vazifalar amalga oshirilishi uchun shaxsan javob beradi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining so'rovi bo'yicha Texnopark va Direksiya faoliyati to'g'risida hisobot taqdim qiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

5. Direksiya faoliyatini moliyalashtirish quyidagi manbalar hisobiga amalga oshiriladi:

Texnopark rezidentlarining Direksiya har oylik jami daromadning bir foizi miqdorida o'tkaziladigan ajratmalari;

xizmatlar ko'rsatishdan, shuningdek, Direksiya biriktirilgan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

xalqaro moliya tashkilotlari va institutlarining grantlari va kreditlari;

startap-loyihalarni venchur moliyalashtirish natijasida olingan daromadlar;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) va O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining tarkibiy bo'linmalari mablag'lari;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

(5-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

6. Direksiya:

Texnopark rezidenti maqomini olish uchun yuridik shaxslardan buyurtmanomalar qabul qilinishini tashkil etadi, shuningdek, Texnopark rezidentlarini Rezidentlarning yagona reyestriga kiritish va rezident maqomi berilganligi to'g'risida tegishli guvohnomani berish orqali rezidentlarni ro'yxatga olish to'g'risida qaror qabul qiladi;

ushbu Nizomga muvofiq yuridik shaxslar va startap-loyihalar tashabbuskorlari tomonidan taqdim etilgan biznes-rejalar, shu jumladan, ekspertlarni (ilmiy va boshqa tashkilotlar, olimlar va mutaxassislarni) jalb qilish orqali ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etadi;

Oldingi tahrirga qarang.

Ekspert kengashining nizomi va tarkibini tasdiqlaydi;

(6-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qaroriga asosan to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

uskunalar, laboratoriya, eksperimental-ishlab chiqarish maydonlari, ofislar, o'quv xonalari, konferens-zallar, auditoriyalar va boshqa xonalarni shartnoma asosida Texnopark rezidentlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga ijaraga va subijaraga beradi;

axborot texnologiyalari (dasturlash, sun'iy intellekt, elektron tijorat va boshqalar) sohasida kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etishga ko'maklashadi;

Texnopark va uning rezidentlari faoliyati ommaviy axborot vositalarida yoritilishini tashkil etadi;

o'z vakolatlari doirasida axborot va tahliliy materiallarni tayyorlaydi va nashr qiladi;

o'z faoliyatini boshlayotgan yuridik shaxslarga investorlar va kreditorlar bilan shartnomalar tuzish jarayonida moliyaviy, yuridik yoki boshqa maslahat yordami beradi;

Texnopark rezidentlariga ularning startap-loyihalari uchun investitsiyalarni jalb qilishda ko'maklashadi;

Texnopark rezidentlarining mahsulotlari va xizmatlari ichki va tashqi bozorlarga kirib borishini tashkil qiladi;

Texnopark rezidentlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishlab chiqariladigan axborot texnologiyalari mahsulotlarining xalqaro yarmarka va ko'rgazmalarini tashkil etadi va o'tkazadi, shuningdek, Texnopark rezidentlarining xalqaro seminarlar, konferensiyalarda va respublikada hamda xalqaro ko'lamda o'tkaziladigan boshqa tadbirlarda ishtirok etishini tashkil etishga ko'maklashadi;

yuridik shaxslarni Texnopark rezidenti maqomidan mahrum qilish bo'yicha qaror qabul qiladi;

Direksiya ustaviga, ushbu Nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq boshqa funksiyalarni bajaradi.

Direksiya o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish doirasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muassis bo'lishga yoki boshqa yuridik shaxslarning ustav fondida (ustav kapitalida) boshqacha tarzda ishtirok etishga, vakolatxonalar va filiallar tashkil etishga haqlidir.

3-bob. Yuridik shaxslarni Texnopark rezidentlari sifatida ro'yxatdan o'tkazish tartibi

7. O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar Texnopark rezidenti maqomini olishga talabgorlik qilishlari mumkin.

8. Texnopark Direksiyasining rezidentlarni ro'yxatga olish bo'yicha ishlarini tashkil etish ushbu Nizomga **1-ilovaga** muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

9. Yuridik shaxslar Texnopark rezidenti maqomini olish uchun quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lishlari kerak:

a) O'zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi kerak;

b) ushbu Nizomga **2-ilovaga** muvofiq faoliyat turini (turlarini) (keyingi o'rinlarda — ro'yxat) amalga oshirish;

v) ro'yxatda belgilangan faoliyat turlari bo'yicha iqtisodiy asoslangan biznes-rejalarga ega bo'lish. Biznes-rejada ro'yxatda ko'rsatib o'tilgan bir yoki bir nechta faoliyat turlarini amalga oshirish bo'yicha aniq tadbirlar, xizmatlarni sotish uchun mo'ljallangan xizmat turlari va ularning hajmi, ularni amalga oshirish zarurligi asoslanishi, taklif etilayotgan loyihaning monetizatsiya modeli, rejalashtirilayotgan moliyaviy-iqtisodiy faoliyat natijalari ko'rsatiladi. Biznes-rejaning shakli va unga bo'lgan talablar Direksiya tomonidan tasdiqlanadi.

(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Oldingi tahrirga qarang.

10. Texnopark rezidenti sifatida ro'yxatdan o'tish uchun ariza beruvchi veb-portal orqali Texnoparkning rezidenti sifatida amalga oshirish taklif etilayotgan biznes-rejani ilova qilgan holda ariza beradi.

(10-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Texnopark rezidenti maqomini olish uchun ariza bergan yuridik shaxsdan ushbu Nizomda nazarda tutilmagan hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun javobgarlik ariza beruvchiga yuklatiladi. Ariza beruvchining taqdim etgan hujjatlarida ushbu Nizom va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining talablariga nomuvofiqliklar aniqlangan holatlarda ariza beruvchi besh ish kunida

undagi kamchiliklarni bartaraf etib, qayta taqdim qilishi mumkin. Mazkur muddatda ariza beruvchi tomonidan nomuvofiqliklar bartaraf etilmasa, Direksiya arizani qabul qilishni rad etishga haqli.

Yuridik shaxsning barcha zarur shakllarni veb-portalda to'ldirganidan so'ng ariza berishi, Texnopark rezidenti sifatida ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, Texnopark rezidentining faoliyati shartlari to'g'risidagi shartnoma (keyingi o'rinlarda — shartnoma) tuzilishiga rozilik berishi hisoblanadi.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qaroriga asosan xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Oldingi tahrirga qarang.

11. Ariza beruvchi Direksiyaga buyurtmanoma berilgan paytdan boshlab 3 ish kuni mobaynida bu haqida yozma xabar bergan holda arizani qaytarib olish huquqiga egadir.

(11-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Oldingi tahrirga qarang.

12. Biznes-rejalarning ro'yxatda belgilangan faoliyat turlariga muvofiqligi, loyihani amalga oshirish imkoniyatlari, axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirishda Texnopark rezidenti sifatida yuridik shaxs tomonidan joriy qilinishi taklif etilayotgan loyihaning innovatsion va ommabopligi bo'yicha ekspertizadan o'tkazish maqsadida topshirilgan ariza va hujjatlar 3 ish kuni mobaynida Direksiya tomonidan Ekspert kengashiga yuboriladi.

Ekspert kengashi biznes-reja taqdimotini o'tkazish uchun ariza beruvchini taklif qilish yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish huquqiga ega.

Ekspert kengashi biznes-reja ekspertizasini o'n ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda o'tkazadi.

Ekspert kengashi ekspertiza natijalariga ko'ra taqdim etilgan biznes-rejaning ro'yxatda belgilangan faoliyat turlariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi to'g'risida xulosa beradi.

(12-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

13. Direksiya taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqib, ushbu Nizomning 10-bandida ko'rsatilgan hujjatlar qabul qilingan kundan boshlab 15 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda ariza beruvchini Texnoparkning rezidenti sifatida ro'yxatdan o'tkazish yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

14. Quyidagilar ariza beruvchini Texnopark rezidenti sifatida ro'yxatga olishni rad etish uchun asos hisoblanadi:

Oldingi tahrirga qarang.

ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda aniqlangan nomuvofiqliklarning berilgan muddat ichida bartaraf etilmasligi;

Ekspert kengashi xulosasiga ko'ra ariza beruvchi faoliyati ma'naviy eskirgan, istiqboli yo'q yoki ahamiyati katta bo'lmagan deb topilishi;

(14-bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Oldingi tahrirga qarang.

amalga oshirilishi taklif etilgan biznes-rejaning ro'yxatda ko'rsatilgan faoliyat yo'nalishlariga mos kelmasligi yoki uni joriy qilish belgilangan faoliyat yo'nalishlari tashqarisiga chiqib ketishi;

yuridik shaxs yoki u bilan bog'liq shaxslarning Texnopark oldida Texnopark rezidentining faoliyati shartlari to'g'risidagi oldingi shartnomalar bo'yicha bajarilmagan majburiyatlarining mavjudligi;

(14-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qaroriga asosan to'rtinchi va beshinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Rad etishning asosi Direksiyaning ariza beruvchini Texnopark rezidenti sifatida ro'yxatga olishni rad etish to'g'risidagi qarorida ko'rsatiladi, ariza beruvchiga ushbu qarordan ko'chirma taqdim etiladi.

15. Yuridik shaxsni Texnopark rezidenti sifatida ro'yxatga olishni rad etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan sabablar ariza beruvchi tomonidan bartaraf etilgan taqdirda, ariza va boshqa hujjatlarni qayta ko'rib chiqish ushbu Nizomning 10 — 13-bandlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

16. Yuridik shaxsni Texnopark rezidenti sifatida ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinishi yuridik shaxsning Texnopark rezidentining faoliyati shartlari to'g'risidagi shartnomaga roziligini anglatadi.

Shartnomaning shakli O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan tasdiqlanadi, Direksiyaning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda ommaviy oferta shakliga muvofiq bo'ladi.

(16-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

17. Texnopark rezidenti:

O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportidan tushumlar doirasida dividendlarni chet el valyutasida naqdsiz shaklda xalqaro to'lov kartalariga amalga oshirish; tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportidan tushumlar doirasida chet el mutaxassislariga ish haqini chet el valyutasida naqdsiz shaklda xorijda ochilgan xalqaro to'lov kartalariga amalga oshirish; eksport kontraktisiz butunjahon Internet axborot tarmog'idagi onlayn do'konlar orqali xorijiy valyutaga ishlar va xizmatlar eksportini amalga oshirish huquqiga ega.

Texnopark rezidenti Direksiya bilan tuzilgan Texnopark rezidentining faoliyati shartlari to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

18. Texnopark rezidenti:

faqat ro'yxatdagi faoliyat turlariga asoslangan biznes-rejada ko'rsatib o'tilgan faoliyat turlarini amalga oshirishi;

Direksiya bilan tuzilgan Texnopark rezidentining faoliyati shartlari to'g'risidagi shartnomaga amal qilishi;

o'z faoliyati to'g'risida Direksiya tomonidan tasdiqlanadigan muddatlarda va shaklga ko'ra axborot, jumladan, statistik va soliq hisoboti nusxalarini veb-portal orqali taqdim etishi;

har oyda hisobot davridan keyingi o'ying 20-kunidan kechikmay Direksiyaning talab qilib olinadigan depozit hisobvarag'iga jami daromadning bir foizi miqdorida ajratma o'tkazishi;

har yili hisobot yilidan keyingi yilning 1-iyuligacha moliya-xo'jalik faoliyati majburiy auditini o'tkazishi va maxsus savolni tekshirish natijalari bo'yicha auditor hisobotining hamda auditorlik xulosasining nusxasini veb-portal orqali Direksiyaga yuborishi, bunda maxsus savolni tekshirish natijalari bo'yicha auditor hisobotida yuridik shaxsning haqiqatda amalga oshirgan faoliyati, ro'yxatda belgilangan faoliyat turlariga muvofiqligi masalalari hamda moliyaviy yil davomida amalga oshirilgan faoliyat turlari va ularni amalga oshirish natijasida olingan umumiy tushumdagi ulush hisobga olinishi, auditorlik xulosasida esa, olingan tushum va yuridik shaxsning haqiqatda amalga oshirgan faoliyati ro'yxatda belgilangan faoliyat turlariga muvofiqligi ko'rsatilishi;

Texnopark rezidenti taqdim etilgan biznes-rejada ko'rsatib o'tilmagan yangi faoliyat turlarini Direksiya tomonidan yangi (qo'shimcha) biznes-reja tasdiqlangandan keyin amalga oshirishi;

o'quv kurslari tashkil etilgan taqdirda har yili Direksiyaga axborot texnologiyalari bo'yicha o'tkazilgan o'quv kurslari haqida ma'lumot berishi hamda ushbu kurslar doirasida o'quv dasturini kelishishi shart.

Texnopark rezidenti Direksiya bilan tuzilgan Texnopark rezidentining faoliyati shartlari to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

(18-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Oldingi tahrirga qarang.

19. Texnopark rezidenti maqomini berish to'g'risida qaror qabul qilingandan keyin Direksiya 3 ish kuni mobaynida:

(19-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

yuridik shaxsning nomi, faoliyati turi, pochta va elektron manzillari ko'rsatilgan holda Rezidentlarning yagona reyestriga yuridik shaxs ro'yxatga olinganligi to'g'risida tegishli yozuvni kiritadi;

yuridik shaxsga Texnopark rezidenti sifatida ro'yxatga olinganligi to'g'risida guvohnoma beradi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga va Davlat bojxona qo'mitasiga, yuridik shaxsga xizmat ko'rsatadigan tijorat bankiga yuridik shaxs Texnopark rezidenti sifatida ro'yxatga olinganligi to'g'risida rasmiy bildirishnoma yuboradi.

Oldingi tahrirga qarang.

20. Yuridik shaxs o'zgartirish shaklida qayta tashkil etilganda Texnopark rezidenti maqomi davlat ro'yxatiga olingan sanadan boshlab barcha huquqlar va oldin qabul qilingan majburiyatlar saqlangan holda o'zgartirilgan yuridik shaxsga o'tadi. Bunda davlat ro'yxatiga olingandan so'ng o'n kun muddatda yuridik shaxs rezidentlarning yagona reyestriga va boshqa hujjatlarga o'zgartirish kiritish uchun yozma ravishda Direksiyaga murojaat qiladi. Bunday tartib yuridik shaxsning nomi o'zgarganda ham qo'llaniladi.

(20-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi yoki nomi o'zgarishi to'g'risidagi xabarnomasi asosida Direksiya Rezidentlarning yagona reyestriga tegishli o'zgartirishlar kiritadi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga va Davlat bojxona qo'mitasiga, yuridik shaxsga xizmat ko'rsatuvchi tijorat bankiga yuridik shaxsning Texnopark rezidenti sifatida ro'yxatdan o'tkazilgani to'g'risida xabarnoma yuboradi.

4-bob. Yuridik shaxsni Texnopark rezidenti maqomidan mahrum qilishning asoslari va tartibi

21. Quyidagilar Texnopark rezidenti maqomidan mahrum qilishning asosi hisoblanadi:

Oldingi tahrirga qarang.

Texnopark rezidenti amaldagi faoliyatining ro'yxatda belgilangan faoliyat turlariga muvofiq emasligi;

(21-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Direksiya bilan tuzilgan Texnopark rezidentining faoliyati shartlari to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik;

Texnopark rezidentining nochor (bankrot) deb e'tirof etilishi;

Texnopark rezidenti rezident maqomidan o'z xohishi bilan voz kechishi;

Oldingi tahrirga qarang.

o'z faoliyati, soliq va statistika hisobotlari, biznes-reja, shuningdek, auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi to'g'risidagi ma'lumotlar belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganligi yoki ularda ishonchsiz ma'lumotlar taqdim etilganligi;

ushbu Nizomning 18-bandi **beshinchi xatboshisida** belgilangan ajratmalarning to'lanmaganligi;

yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi;

(21-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qaroriga asosan oltinchi — sakkizinchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq boshqa asoslar.

Oldingi tahrirga qarang.

22. Texnopark rezidenti maqomidan mahrum qilish to‘g‘risidagi qaror Direksiya tomonidan qabul qilinadi. Qaror qabul qilingandan keyin yuridik shaxsga bu haqda xabar yuboriladi hamda Rezidentlarning yagona reyestriga tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.

Texnopark rezidenti maqomidan mahrum qilish yuridik shaxsning Nizomda belgilangan majburiyatlari tugashiga olib kelmaydi.

(22-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(23-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Oldingi tahrirga qarang.

24. Direksiya yuridik shaxsning Texnopark rezidenti maqomidan mahrum qilangani to‘g‘risidagi yozuvni Rezidentlarning yagona reyestriga kiritgan kundan boshlab 3 ish kuni mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasi va yuridik shaxsga xizmat ko‘rsatuvchi tijorat bankiga xabar beradi.

(24-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

5-bob. Texnopark rezidentlari uchun soliq va bojxona imtiyozlarini qo‘llash tartibi

Oldingi tahrirga qarang.

25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 10-yanvardagi 17-son **qaroriga** muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 30-iyundagi PF-5099-son **Farmoni** bilan berilgan imtiyozlarning amal qilishi Texnopark rezidentlariga va ularning xodimlariga tatbiq etiladi.

(25-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

26. Ushbu Nizomning **25-bandida** nazarda tutilgan imtiyozlar:

Oldingi tahrirga qarang.

solliqlar va majburiy ajratmalar bo‘yicha — yuridik shaxs Rezidentlarning yagona reyestriga kiritilgan oydan keyingi oynning 1-kunidan;

(26-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

bojxona to‘lovlari bo‘yicha — bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar qo‘llagan holda O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan (import qilinadigan) tovarlar ro‘yxatining kompleks ekspertizasi yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasi ijobiy xulosasi olingan kundan boshlab qo‘llaniladi.

Oldingi tahrirga qarang.

27. Texnopark rezidenti O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 297-moddasi **uchinchi qismida** nazarda tutilgan faoliyatlardan solliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni umumiy tartibda to‘lash sharti bilan daromad olish huquqiga ega, shu bilan birga ro‘yxatga muvofiq faoliyat turini amalga oshirganda, ushbu moddaning uchinchi qismidagi **1, 9, 16** va **18-bandlari** bo‘yicha barcha solliqlarni to‘lashdan ozod qilinadi.

(27-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Oldingi tahrirga qarang.

28. Texnopark rezidentlari ushbu Nizomning **18-bandida** nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda Texnopark rezidenti maqomidan mahrum etiladi va Direksiyaning xabarnomasiga binoan davlat soliq xizmati organlari ushbu Nizomning **25-bandida** ko'rsatilgan imtiyozlarning ularga qo'llanilishini bekor qilish va belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga to'lash bo'yicha majburiyatlarni tiklash choralari ko'radi.

(28-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Oldingi tahrirga qarang.

29. Yuridik shaxs Texnoparkning rezidenti maqomidan mahrum etilganda, quyidagi imtiyozlardan:

(29-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

solliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha — Texnopark rezidenti maqomi bekor qilingan oydan keyingi oyning 1-kunidan;

bojxona to'lovlari bo'yicha — rezident maqomi bekor qilingan kundan boshlab foydalanmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxsning Texnopark rezidenti maqomidan o'z xohishi bilan voz kechishi sanasi yuridik shaxsning arizasi Direksiyaga kelib tushgan sana hisoblanadi.

(29-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qaroriga asosan to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

30. Texnopark rezidenti tomonidan bojxona to'lovlaridan ozod qilingan tovarlardan erkin muomalaga chiqarilgan sanadan boshlab uch yil mobaynida o'z ehtiyojlaridan tashqari foydalanganligi holatlari aniqlanganda, davlat soliq xizmati organlari ushbu rezident — soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvini o'tkazish chog'ida aniqlangan holatlar to'g'risida tegishli hujjatlar tuzadi va ularni 3 ish kuni mobaynida davlat bojxona xizmatining hududiy organlariga yuboradi.

O'z ehtiyojlaridan tashqari foydalanilgan olib kirilgan tovarlar ulushiga to'g'ri keladigan bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar summasi belgilangan tartibda penya hisoblangan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga undirilishi zarur.

6-bob. Istiqbolli startap-loyihalarni ko'rib chiqish va tanlab olish tartibi

31. Direksiya startap-loyihalarni tanlab olish va moliyalashtirish jarayonini ushbu Nizomga **3-ilovaga** muvofiq sxema bo'yicha tashkil etadi.

32. Axborot texnologiyalari, shuningdek, ilg'or axborot texnologiyalarini moliya texnologiyalari, elektron tijorat, elektron ta'lim, qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, oziq-ovqat sanoati, tibbiyot, logistika sohalariga joriy etish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarishga integratsiya qilish va boshqalar Texnopark rezidentlari tomonidan startap-loyihalarni amalga oshirish doirasida ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi.

33. Saralashda ishtirok etish uchun araza beruvchi — startap-loyiha tashabbuskori Direksiyaga (shaxsan o'zi kelib, pochta aloqasi orqali, elektron pochta orqali yoki Direksiyaning rasmiy veb-sayti orqali) ushbu Nizomga **4-ilovaga** muvofiq hujjatlarni taqdim etadi.

Ariza beruvchi taqdim qilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning ishonchligi uchun javob beradi.

34. Ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning zarur hujjatlar ro'yxatiga muvofiqligini, shuningdek, ularning ushbu Nizomning **45-bandida** belgilangan mezonlarga muvofiqligini ko'rib chiqish va o'rganish maqsadida Texnoparkda inkubatsiya va akseleratsiya

dasturlariga qabul qilish uchun istiqbolli startap-loyihalarni ko'rib chiqish va baholash bo'yicha Maslahat kengashi tashkil etiladi.

Startap-loyihalar bo'yicha qabul qilingan buyurtmanomalarni ko'rib chiqish 20 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi. Inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturiga qabul qilish bo'yicha qaror Kengash tomonidan qabul qilinadi.

35. Direksiya startap-loyihani inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturiga qabul qilish yoki rad etish to'g'risida uzil-kesil qarorga kelish maqsadida ariza beruvchini o'z startap-loyihasi taqdimotini o'tkazish uchun taklif qilish huquqiga ega.

36. Kengash ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning 4-ilovada ko'rsatilgan zarur hujjatlarga muvofiqligini o'rganib chiqadi va tahlil qiladi hamda ushbu Nizomning 45-bandida ko'rsatilgan mezonlarga muvofiqligi bo'yicha tanlovni amalga oshiradi.

37. Kengash o'rganib chiqish natijalariga ko'ra startap-loyihani inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturiga qabul qilish yoki rad etish haqida kollegial qarorni qabul qiladi.

38. Kengash qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi hamda Kengashning raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

39. Startap-loyihani qabul qilish rad etilganda Direksiya Kengash qaroriga asosan rad etilish asoslari keltirilgan yozma xabarni ariza beruvchiga jo'natadi.

40. Startap-loyihani qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda Direksiya bilan startap-loyiha tashabbuskori o'rtasida Direksiya tomonidan belgilangan muddatlarda startap-loyihaning inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturida ishtirok etishi bo'yicha bitim tuziladi.

41. Akseleratsiya dasturidan o'tgan startap-loyihalarni o'z vaqtida ko'rib chiqish va o'rganish, keyinchalik moliyalashtirish hamda yuqori malakali mentorlarni tanlab olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligida startap-loyihalarni ko'rib chiqish, baholash va mentorlarni tanlash bo'yicha Ekspert komissiyasi tuziladi.

42. Direksiya akseleratsiya dasturlari yakuniga ko'ra keyinchalik moliyalashtirish uchun mahsulotlar (xizmatlar) namoyishini (namoyish kunini) tashkil qiladi. Namoyish yakunlariga ko'ra moliyalashtirish uchun ariza tayyorlanadi va Ekspert komissiyasiga yuboriladi.

43. Ekspert komissiyasi namoyish o'tkazilgandan keyin 7 ish kuni mobaynida loyihalarni ushbu Nizomning 45-bandida ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq saralash uchun ko'rib chiqadi.

44. Kelgusida ishtirok etish va moliyalashtirish uchun tavsiya etilgan startap-loyihalar Ekspert komissiyasi qarori qabul qilingandan keyin 3 ish kuni mobaynida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri yoki uning Ekspert komissiyasi faoliyati uchun mas'ul o'rinbosari imzosi bilan Jamg'armaga moliyaviy mablag'larni ajratish uchun xat bilan yuboriladi.

Bunda Jamg'arma, Direksiya va startap-loyiha tashabbuskori o'rtasida 5 ish kuni mobaynida startap-loyihani moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlash shartlari to'g'risida shartnoma tuziladi.

7-bob. Startap-loyihalarni tanlab olish va baholash mezonlari

45. Kengash va Ekspert komissiyasi hujjatlarning ushbu Nizom talablariga muvofiqligini o'rganadi va startap-loyihalarni quyidagi mezonlar asosida tanlab oladi:

ushbu Nizomning 33-bandida sanab o'tilgan hujjatlarning mavjudligi va ularning sifatini baholash;

startap-loyihaning ushbu Nizomning 32-bandidagi yo'nalishlarga muvofiqligi;

taklif qilinayotgan startap-loyihaning dolzarbligi — loyihada yoritilgan g'oyaning zamonaviy muammo va masalalarni hal etishdagi ahamiyati baholanadi;

startap-loyihaning innovatsion yo'naltirilganligi va g'oyasining yangiligi — loyiha yangi, takomillashtirilgan, ilgari respublikada qo'llanilmagan texnologiyalar va (yoki) prinsiplarni qo'llash, shuningdek, yangi, respublikada ilgari ishlab chiqarilmagan mahsulotni ishlab chiqarish hamda yangi xizmat joriy etilishini mo'ljallagan bo'lishi kerak;

startap-loyihaning natijalarga erishish imkoniyatlarini baholash — loyihada bayon qilingan natijalarga erishishga qaratilgan masalalarni hal etish uchun taklif etilayotgan usullar va yo'llarning mavjudligi, asoslanganligi hamda yetarli ekanligi baholanadi;

bozorda mahsulot yoki xizmatga bo'lgan talabning mavjudligini baholash — mahsulot yoki xizmatning bozor talabi hamda tijorat istiqbollari baholanadi;

startup-loyihaning tijoratlashtirilishi istiqbollari — kelajakdagi mahsulot tatbiq etilish va bozorga chiqish istiqboliga ega bo'lishi, muayyan iste'molchiga nisbatan qo'llanilishi kerak;

loyihaning salohiyatli raqobat afzalliklarini baholash — iste'molchi uchun mahsulot/tehnologiyaning uning amaldagi analoglariga nisbatan ustunliklari mavjudligi kabi muhim xususiyatlari baholanadi;

loyihaning investitsion jozibadorligi — qo'shimcha foyda keltiradigan va investitsiyalarni qoplamaslik xavfini kamaytiradigan qulay investitsiya va innovatsion shartlar hamda afzalliklar jamlanmasi;

loyihaning iqtisodiy samaradorligi — loyihani amalga oshirishning moliyaviy natijalarini bevosita ishtirokchilar uchun hisobga holda iqtisodiy samaradorlik, shuningdek, loyihani amalga oshirishning moliyaviy oqibatlarini aks ettiruvchi budjet samaradorligi.

8-bob. Startup-loyihalarning inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarida ishtirok etish tartiblari

46. Startup-loyihaning inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarida ishtirok etishi tartibi va maqsadga muvofiqligi Direksiya tomonidan belgilanadi.

47. Direksiya bilan startup-loyiha tashabbuskori o'rtasida tuzilgan startup-loyihaning inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturida ishtirok etishi bo'yicha bitimga muvofiq qabul qilingan majburiyatlar va ushbu Nizomda belgilangan talablar bajarilmaganda Direksiya Ekspert komissiyasining qarori asosida startup-loyiha tashabbuskorini chiqarib tashlash huquqiga ega.

48. Alohida startup-loyiha uchun mentorlar startup-loyiha taqdim etilgan soha bo'yicha ish tajribasiga va maslahat bera olish tajribasiga ega malakali mutaxassislardan tanlanadi.

49. Mentorlar startup-loyiha tashabbuskori va mentorlar o'rtasidagi shartnoma shartlariga asosan startup-loyihani amalga oshirishdan moliyaviy manfaatdor bo'lishlari mumkin.

9-bob. Istiqbolli startup-loyihalarni moliyalashtirish tartibi

Oldingi tahrirga qarang.

50. Istiqbolli startup-loyihalarni moliyalashtirish Jamg'arma mablag'lari, Direksiyaning o'z mablag'lari hisobiga, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalarni jalb qilgan holda amalga oshiriladi.

(50-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Oldingi tahrirga qarang.

51. Startup-loyihalarni moliyalashtirish Jamg'arma tomonidan pul mablag'larini beg'araz ajratish yo'li bilan, shuningdek, ushbu Nizomning 53-bandiga muvofiq Direksiya tomonidan hamda qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalarni jalb qilgan holda amalga oshiriladi.

(51-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

52. Startup-loyihani amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratish Direksiya va startup-loyiha tashabbuskori tomonidan imzolangan shartnomaga asosan ishlash uchun xonalar va uskunalar ajratish, yuqori tezlikdagi Internet bilan ta'minlash va boshqalar, konsalting xizmatlari ko'rsatish yoki yuridik shaxs — startup-loyiha tashabbuskori hisob raqamiga maqsadli pul mablag'larini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

53. Startup-loyihani moliyalashtirish venchur moliyalashtirishni o'z ichiga oladi, bunda Direksiya startup-loyiha muassislari tarkibiga kiradi. Direksiya hissasi, ulushlarni taqsimlash tartibi Jamg'arma (Jamg'arma tomonidan moliyalashtirish amalga oshirilgan hollarda), Direksiya va startup-loyiha tashabbuskori o'rtasida startup-loyihani moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlash shartlari to'g'risidagi shartnomada belgilanadi.

(53-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Direksiya va startap-loyiha tashabbuskori o‘zaro hamkorlikning keyingi bosqichlarini, o‘zaro hisob-kitob shartlarini hamda Direksiyaning startap-loyiha tashabbuskori tomonidan ta’sis etilgan yuridik shaxsning muassislari tarkibidan chiqishi tartibini qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda belgilaydilar.

54. Ekspert komissiyasining ijobiy xulosasi startap-loyihani moliyalashtirish uchun asos bo‘ladi.

10-bob. Mentorlarni tanlash

55. Startap-loyihada ishtirok etish uchun mentorlarni tanlash Kengash taqdimnomalari bo‘yicha Ekspert komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

56. Kengash Direksiyaning startap-loyihalarida ishtirok etishi uchun ekspertlarni, shu jumladan, chet ellik ekspertlarni dastlabki o‘rganishni amalga oshiradi va Ekspert komissiyasining ko‘rib chiqishi uchun tavsiya etilgan mutaxassislar ro‘yxatini kiritadi.

57. Komissiya tavsiya etilgan ro‘yxatni ko‘rib chiqib, mentorlarni quyidagi me‘zonlarga muvofiq tanlaydi:

startap-loyiha taqdim etilgan sohada amaliy ish tajribasi mavjudligi;

biznes yuritish tajribasi (ehtimol boshqa yo‘nalishlarda) mavjudligi;

startap-loyihaning kelajakdagi mahsulotlarini sotish uchun potensial bozorlar konyunkturasini bilish.

Mentorlarga startap-loyiha hususiyatidan kelib chiqib boshqa mezonlar qo‘llanilishi mumkin.

58. Ekspert komissiyasining qarori Ekspert komissiyasi raisi tomonidan imzolananadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

11-bob. Yakunlovchi qoida

59. Texnopark faoliyatini qayta tashkil etish va to‘xtatish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi
nizomga
1-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasining rezidentlarni ro‘yxatga olish ishini tashkil etish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi (yuridik shaxs)	Texnopark rezidenti sifatida ro‘yxatga olish uchun tasdiqlangan shakl bo‘yicha zarur bo‘lgan barcha hujjatlarni ilova qilgan holda (biznes-reja va b.) Direksiyaga ariza beradi.	Zaruratga ko‘ra
2-bosqich	Direksiya	Ariza va hujjatlarni qabul qiladi hamda Ekspert kengashiga taqdim etadi.	3 ish kuni mobaynida
3-bosqich	Ekspert kengashi	1. Biznes-rejani ekspertizadan o‘tkazadi, ekspertiza natijalariga ko‘ra Direksiyaga tegishli xulosa beradi. 2. Zarur bo‘lganda yakuniy qarorga kelish maqsadida ariza beruvchini	10 ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatda

		biznes-loyiha taqdimotini o'tkazish uchun taklif qiladi.	
4-bosqich	Direksiya	1. Hujjatlarni ko'rib chiqadi va rezident sifatida ro'yxatga olish (yoki ro'yxatga olishni rad etish) to'g'risida qaror qabul qiladi. 2. Ro'yxatga olish rad etilganda Direksiyaning qarorida rad etishning asosini ko'rsatadi va ariza beruvchiga ushbu qarordan ko'chirma taqdim etadi.	Ariza tushgan kundan keyin 15 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda
5-bosqich	Ariza beruvchi	Ro'yxatga olish rad etilgan taqdirda, Texnopark rezidenti sifatida ro'yxatga olishni rad etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan sabablarni bartaraf etadi hamda arizaga boshqa hujjatlarni ilova qilgan holda ko'rib chiqish uchun hujjatlarni qaytadan kiritadi.	Zaruratga ko'ra
6-bosqich	Direksiya	1. Ro'yxatga olish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, Rezidentlarning yagona reyestriga tegishli yozuvlarni kiritadi va yuridik shaxsning ro'yxatga olinganligi to'g'risida guvohnoma beradi. 2. Davlat soliq qo'mitasiga, Davlat bojxona qo'mitasiga va yuridik shaxsga xizmat ko'rsatadigan tijorat bankiga rasmiy bildirishnoma yuboradi.	Qaror qabul qilingan kundan keyin 3 ish kuni mobaynida

(1-ilovaning matni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi
nizomga
2-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlari tomonidan amalga oshirishga ruxsat etilgan faoliyat turlari

RO'YXATI

1. Har qanday platformalar uchun dasturiy ta'minotni, shu jumladan kompyuter o'yinlarini ishlab chiqish, loyihalash hamda ularni sotish (shu jumladan, dasturiy ta'minotdan foydalanishga ruxsat berish, dasturiy ta'minotning mutlaq huquqini berish (taqdim etish).

2. Dasturiy ta'minotni joriy etish yoki joriy etishda alohida bosqichlarni amalga oshirish, qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish, shu jumladan, ushbu dasturiy ta'minot bilan ishlash (malaka oshirish)ni o'rgatish xizmatlari.

3. Dasturiy mahsulotni takomillashtirish hamda modifikatsiya qilish.

4. Axborot tizimlari va dasturiy ta'minotni ishlab chiqish jarayonida ma'lumotlar bazalarini yaratish, ushbu ma'lumotlar bazalari uchun yozuvlarni belgilangan formatda tayyorlash hamda ularga kirishni ta'minlash, qo'llab-quvvatlash va xizmat ko'rsatish.

5. Dasturiy ta'minotdan foydalangan holda ma'lumotlarni qayta ishlash faoliyati.

6. O‘z dasturiy ta‘minotida reklama uchun joy taqdim etish yoki dasturiy ta‘minotning xususiyatlaridan foydalangan holda boshqa qo‘shimcha daromad olish.

7. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini ishlab chiqish va joriy etish.

8. Yuridik shaxslarning axborot ehtiyojlarini tahlil qilish (tizimli tahlil, biznes-tahlil) hamda biznes-jarayonlarni innovatsiya (reinjining) qilish maqsadida axborot tizimlari va dasturiy ta‘minotni joriy qilish uchun texnik talablarni ishlab chiqish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maslahat berish.

9. Axborot tizimlari va dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish, joriy qilish va ularni foydalanishga topshirish jarayonida foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlari va texnik talablariga muvofiqligini audit qilish.

10. Texnopark rezidenti tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy ta‘minotda uchinchi shaxs so‘roviga binoan ma‘lumotlarni qidirish, tanlash, qayta ishlash va saralash hamda ularga axborot taqdim etish bo‘yicha avtomatlashtirilgan xizmat ko‘rsatish.

11. Dasturiy ta‘minotdan (dasturiy-apparat vositalaridan) foydalangan holda O‘zbekiston Respublikasi norezidentlariga yordamchi ishlab chiqarish, ma‘muriy va biznes jarayonlarni boshqarish (amalga oshirish) bo‘yicha xizmat ko‘rsatish (biznes-jarayonlarni outsorsing qilish).

12. Texnopark rezidenti tomonidan ishlab chiqilgan materiallar, texnologiyalar, mikro-, opto- va nanoelektronika, mikroelektrotexnika tizimlari hamda ular bilan mos keluvchi dasturiy ta‘minotni sotish.

13. Ma‘lumotlarni uzatish tizimlari, texnologiyalar, qurilmalar va radiolokatsiya tizimlari, radionavigatsiya, radioaloqa, radioboshqaruv, radiochastota identifikatsiya uskunalarini ishlab chiqish (tadqiqot o‘tkazish, loyihalash (qurish), test qilish hamda texnik sinovdan o‘tkazish) va bunday ishlanmalar natijalarini ishlab chiqarish yoki ushbu xizmatlarni ko‘rsatmasdan turib o‘zlashtirilgan holda sotish xizmatlari.

14. Yuqori texnologiyali qurilmalar va tizimlar, dasturiy-apparat vositalari va ular bilan mos keluvchi dasturiy ta‘minotni (sanoat xarakteriga bog‘liq bo‘lmagan holda) ishlab chiqish yoki ishlab chiqarishning alohida bosqichlari (tadqiqot o‘tkazish, loyihalash, prototiplash, sinovdan o‘tkazish) hamda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish va (yoki) ishlab chiqarish natijalarini o‘zlashtirish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish yoki xizmat ko‘rsatmasdan sotish.

15. Axborotni texnik va (yoki) kriptografik, shu jumladan, elektron raqamli imzodan foydalanish orqali himoya qilish faoliyati.

16. Bir-biri va tashqi muhit bilan o‘zaro muloqot qilish uchun o‘rnatilgan texnologiyalar bilan jihozlangan jismoniy obyektlarning hisoblash-kommunikatsiya tarmog‘i konsepsiyasini ishlab chiqish, joriy qilish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar.

17. Texnopark direksiyasi tomonidan tasdiqlangan dasturga muvofiq, axborot texnologiyalari sohasida, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali ta‘lim berish faoliyati.

18. Internet jahon axborot tarmog‘i orqali axborot xizmatlarini eksport qilish.

Izoh. Faoliyat turlari bo‘yicha tasniflash hamda ularga tushuntirishlar berish Direksiyaning ekspert kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

(2-ilovaning matni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 672-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi
nizomga
3-ILOVA

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki Direksiyasining startup-loyihalarni tanlab olish va moliyalashtirish ishini tashkil etish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Bajarish muddati
-------------------	-------------------	------------------------	-------------------------

1-bosqich	Startap-loyiha tashabbuskori (jismoniy yoki yuridik shaxs)	Startap-loyihaning inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturida ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni ilova qilgan holda Direksiyaga ariza beradi.	Zaruratga ko'ra
2-bosqich	Direksiya huzuridagi startap-loyihalarni baholash bo'yicha maslahat kengashi	<p>1. Startap-loyiha tashabbuskori tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning zarur hujjatlar ro'yxatiga va belgilangan mezonlarga muvofiqligini ko'rib chiqadi va o'rganadi.</p> <p>2. Zarurat bo'lganda yakuniy qarorga kelish maqsadida ariza beruvchini o'z startap-loyihasining taqdimotini o'tkazish uchun taklif qiladi.</p> <p>3. Startap-loyihani inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturiga qabul qilish (yoki rad etish) to'g'risida qaror qabul qiladi.</p>	20 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda
3-bosqich	Direksiya	Startap-loyihani qabul qilish rad etilganda, rad etishning asosini ko'rsatgan holda yozma ma'lumot yuboradi.	Oldingi bosqich muddatlari doirasida
4-bosqich	Direksiya, startap-loyiha tashabbuskori	Qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilinganda startap-loyihaning inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturida ishtirok etishi bo'yicha bitim tuzadilar.	Direksiya tomonidan belgilangan muddatlarda
5-bosqich	Direksiya, startap-loyiha tashabbuskori	Kelgusida moliyalashtirish masalasini ko'rib chiqish uchun startap-loyiha mahsulotlari (xizmatlari) namoyishini o'tkazadilar.	Akseleratsiya dasturidan o'tish yakunlari bo'yicha
6-bosqich	Direksiya	Buyurtmanomani moliyalashtirish uchun buyurtmanomani startap-loyihalarni baholash va tanlash mezonlariga muvofiq Ekspert komissiyasiga yuboradi.	Startap-loyiha namoyishi yakunlariga ko'ra
7-bosqich	Axborot texnologiyalari vazirligining Istiqbolli startap-loyihalarni aholash bo'yicha Ekspert komissiyasi	<p>1. Loyihalarni ko'rib chiqadi va baholaydi.</p> <p>2. Kelgusida ishtirok etish va moliyalashtirish uchun tavsiya etilgan startap-loyihalarni AKTni rivojlantirish jamg'armasiga yuboradi.</p>	7 ish kuni mobaynida 3 ish kuni mobaynida

8-bosqich	AKTni rivojlantirish jamg'armasi, Direksiya, startap-loyiha tashabbuskori	AKTni rivojlantirish jamg'armasi, Direksiya va startap-loyiha o'rtasida moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlash shartlari to'g'risida shartnoma tuzadilar.	5 ish kuni mobaynida
-----------	---	---	----------------------

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi
nizomga
4-ILOVA

“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki Direksiyasi” MChJ Direktoriga

Istiqbolli startap-loyihalarni tanlashda hamda Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarida ishtirok etishga

ARIZA

_____ (loyihaning nomi)

_____ (jismaniy shaxsning F.I.O. yoki yuridik shaxsning nomi)

_____ (jismaniy shaxsning yashash manzili yoki ariza beruvchining yuridik manzili)

istiqbolli startap-loyihalarni tanlashda va Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarida ishtirok etishini ko'rib chiqishingizni so'rayman.

Ishtirokchi to'g'risida ma'lumot:

_____ (telefon raqami, elektron pochta manzili)

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

1. Jismaniy shaxs bo'lgan taqdirda uning pasporti nusxasi.
2. Startap-loyiha bo'yicha batafsil ma'lumot.

_____ (ariza beruvchining imzosi)

Sana: 20__y. “___” _____

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.07.2019-y., 09/19/589/3431-son; 31.10.2020-y., 09/20/672/1437-son)